
AYOLLAR BANDLIGI DOIM E'TIBORDA

Toshloq tumanida «Ayollar daftari»ga kiritilgan xotin-qizlarni tadbirkorlik faoliyatini yuritishi, o'z-o'zini band qilish maqsadida «Ayollar daftari» jamg'armasi mablag'lari hisobidan subsidiya asosida asbob-uskuna, mehnat qurollari tarqatilmoqda. Kuni-kecha tuman hokimi Abduqaxxor Djurabayev "Ayollar daftari"ga kiritilgan 51 nafar ijtimoiy himoyaga muhtoj ishsiz xotin-qizlarga subsidiya asosida elektr pechlarni topshirdi. Ucholish MFYda yashovchi O'ktamxon Abduraximova pazandachilik sirlarini o'rganib olganligi, yangi pechda pishiriq tayyorlab xonadoni yonida joylashgan 16-umumta'lim maktabida ta'lim olayotgan o'quvchilarga va o'qituvchilarga sotib oilasiga daromad keltirishini aytib, bunday qo'llab-quvvatlashdan mamnun ekanligini bildirdi.

2022-11-12 09:02:19